

**"BOBURNOMA" ASARIDAGI HARBIY TERMINLAR**

*Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 3-bosqich talabasi  
Sattarova Mahliyo*

**Annotatsiya**

Maqolada aks etadigan materiallar Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub Boburnoma asaridagi harbiy terminlar haqida yoritiladi. Ayni paytda uning "Boburnoma" asaridan olingan parchalar orqali fikrlar quvvatlanadi.

**Kalit sózlar:** harbiy terminologiya, harbiy shaxslar, harbiy sózlar, izohlar, tahlillar.

**Kirish**

Jahon tilshunosligida soha terminologiyasida kasbga oid til birliklari tushunchasi bilan bog'liq leksik-semantik xususiyatlarni aniqlashga qaratilgan bir qator muammolar ilmiy tadqiqot obyekti bo'lib kelmoqda. Bugungi kunga kelib, kasbiy soha tilini o'rganish yangi bosqichga ko'tarildi. Biroq, kasbiy sohaga oid til birliklarini mavzu bo'yicha yoki boshqa kichik guruhlar asosida tasniflash tamoyillarini hamda ularga xos alohida tizimlararo munosabat turlarini aniqlash, shuningdek, ushbu til birliklarining o'ziga xos funktsional xususiyatlarini belgilashga doir masalalar hanzuz o'z yechimini kutmoqda[1]. Shu nuqtai nazardan, ushbu sohada mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq O'zbekiston tilshunoslari zimmasiga kasbga oid til birliklarini o'rganish va soha atamalarini tizimlashtirish, shuningdek, maxsus soha lug'atlarini tuzish bo'yicha bir qator vazifalar yuklatildi. H.Dadaboyevning "Eski o'zbek tilidagi harbiy leksika" deb nomlangan ilmiy ishida harbiy istilohlar tizimi ilk bor semantikfunktsional, tarixiy-etimologik va struktur-grammatik nuqtayi nazardan tahlil qilingan bo'lib, o'zbek tilshunosligida hamda turkologiyada harbiy soha terminologiyasini o'rganish uchun katta zamin yaratdi. H.Dadaboyev hamda H.Yodgorov hammuallifligidagi "O'zbek harbiy terminologiyasi" nomli o'quv qo'llanmasida o'zbek harbiy terminologiyasining sulolaviy shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari, xususan, Ko'k turk hoqonligi, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Temuriylar, Shayboniylar, O'rta Osiyo xonliklari, chorizm, sobiq sho'rolar va mustaqillik davri o'zbek tili harbiy terminologiyasining shakllanishida boshqa tillarning salmoqli o'rni, istiqloq yillari o'zbek harbiy terminologiyasida yuz bergan jarayonlar haqida ma'lumot beriladi[2]. Bizning ona zaminimizda milliy davlatchilik 3 ming yillik boy tarixga ega sanalsa, o'sha davrlarda jamiyatning turli sohalari kabi harbiy sohasi san'at darajasida rivojlanish bosqichini bosib o'tdi, bu jarayonda milliy tilning o'rni beqiyos sanaladi.

**Asosiy qism**

Notiqlikning bir qancha turlari bor. Bular ijtimoiy-siyosiy, akademik, diniy, sud notiqligi, harbiy va ijtimoiy-maishiy notiqlikdir. Bular ichida alohida ajralib turadigani harbiy notiqlikdir. Tinchlik sharoitida ham, davlat boshqaruvi, hatto urush sharoitida ham qo‘shinni boshqarishda notiqlik san’atining alohida o‘rni bo‘lganligiga uzoq asrlik tarix guvoh. Chunki ko‘zlangan maqsad bu strategiya bo‘lsa, uni amalga oshirish yo‘llari bu taktikadir. Demak, har qanday strategiyaning ta’sirchan mexanizmi bu — til taktikasidir. Harbiy notiqlik mohiyat e’tibori bilan jangovarlikni, xitob va da’vatni anglatadi. Shuning uchun ham mashhur Rim notig‘i Mark Tulliy Sitseron «Tarixda yo yaxshi harbiy sarkarda yoki notiq bo‘lish kerak», degan. U ko‘rib kuzatgani va anglab yetganidan so‘ng shu fikrga kelgani aniq. Notiqlik va harbiy sohadagi faoliyat o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Har qanday g‘alabani ta’minlash mezoni bevosita notiqlik mahorati bilan bog‘liq. Sohibqiron Amir Temur ham jang san’atida, boshqaruv tizimida notiqlikning alohida o‘rnini e’tirof etgani va amal qilgani bejiz emas. Jangda g‘alabaning garovi o‘ziga ishonch bilan bog‘liq bo‘lgani kabi so‘zga ham bevosita bog‘liq. Qo‘mondon qo‘shiniga o‘z nutqi orqali ishonch ruhini bersa, u dadil harakat qiladi va zafar quchadi, aks holda, mag‘lubiyatga uchraydi. Shuning uchun ham notiqlikning asl mohiyati ishontirish orqali ta’sirlantirish san’atidir. «Temur tuzuklari»ni nutq san’atining noyob namunasi deyish mumkin. Keyingi avlod temuriyzodalardan bo‘lgan Zahiriddin Muhammad Bobur sohibqiron Amir Temurning jang san’ati va boshqaruv mahoratidan tashqari, o‘z so‘zi, nutqi va voizlik mahoratiga ega bo‘lganini ham eshitgan, bilgan. «...har kim o‘z so‘ziga ega bo‘lsin, ishini bilib o‘zi qilsin, ya’ni raiyat podshosi aytgan so‘zini, qilgan ishini o‘zi aytadi, o‘zi qiladi...» degan «Temur tuzuklari»dagi bitiklar ham o‘sha davrda notiqlik san’atining rutbasi yuqori bo‘lganini bildiradi. «Yaxshi nutq egasi – uquvli, qat’iyatli, o‘ziga ishongan bo‘lishi darkor, chunki va’zxonlik – kuch. Voiz bo‘lish uchun, so‘zning qudrati va sehrini egalash lozim. Amir Temurning qudrati, avvalo, uning donishmand fikrlarida, maslahatli kengashlardagi so‘zlangan nutqlarida namoyondir, chunki XIV asrda markazlashgan feodal davlatni tuzish, ulkan qo‘shinga sarkardalik qilish uchun har taraflama bilimdon, qat’iyatli, voiz-shaxs bo‘lish lozim edi», — deb yozadi A. Aripova o‘zining «Iqtisodiy nutq asoslari» o‘quv qo‘llanmasida. Ushbu sifatlarni hech ikkilanmasdan Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ham aytish mumkin. Hind xalqining buyuk davlat arboblardan Javoharlal Neruning ushbu mulohazasi ham yuqoridagi fikrimizga dalildir. «Bobur dilbar shaxs, Uyg‘onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo‘lgan. U san’atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur qilishni yaxshi ko‘rardi...»Mard va tadbirkor, san’atni sevgan kishigina qat’iy iroda, o‘z so‘ziga, fikriga ega inson bo‘lishi tayin. Jonli manzaralar yaratuvchi, da’vatkor kuchga ega so‘zning o‘rni katta. To‘p-u zambaraklar, behisob qo‘shin eplay olmagan ishni oddiy so‘z bajara olganiga tarix shohid. Boburning nutqiy mahorati haqida mufassal ma’lumotni shoh va shoirning qizi Gulbadanbegimning



«Humoyunnoma» asaridan olish mumkin. 1527 yili Boburning Hindistonda Rano Sango bilan jangi oldidan qo‘shinlari orasidagi vaziyat aziyatga sabab bo‘ladi. Boshi qovushmagan jangchilar orasida ixtilof va tarqoqlik boshlanadi. Shunda Bobur lashkarga qarata jonli, ta’sirchan nutq irod qiladi. Gulbadanbegim «bunga majlisdagilarning hammasi rozi bo‘lishib..., tomirimizda bir tomchi qonimiz qolguncha kurashamiz, deb qasam ichadilar...» degan dalilni keltiradi: «Har kimki hayot majlisiga kiribtur, oqibat ajal paymonasidin ichkusidir va har kishikim, tiriklik manziliga kiribtur, oxir dunyo g‘amxonasidin kechkusidir, yomon ot bilan tirilgandin, yaxshi ot bilan o‘lgan yaxshiroq... Tangri taolo bu nav’ saodatni bizga nasib qilibtur va mundoq davlatni bizga qariyb aylabtur. O‘lgan shahid va o‘ldurg‘on g‘oziy, barcha Tangrining kalomi bilan ont ichmak kerakkim, hech kim bu qatoldin yuz yondirur xayol qilmay, to badandin joni ayrilmag‘unicha, bu muhoriba va muqotiladin ayrilmag‘ay...» Boburning ushbu otashin, jangovar nutqidan so‘ng barcha askarlar yakdil holda, jam bo‘lib, jangga kirishgan. Jang oldidan lashkarni ruhlantirish, g‘alabaga nisbatan ishonch tuyg‘usini uyg‘otish tajribali qo‘mondonlarning faoliyatida sinashta bo‘lgan. Napoleon Bonapart jangga kirishishga tayyor turgan qo‘shinga qarata shunday deyishi odat bo‘lgan. «Jangda o‘lishni hamma eplaydi. Mard va jasur jangchilargina tirik qoladi. Menga o‘ligingiz emas, tirigingiz kerak. Shunday ekan, barchangizga o‘lmaslikni buyuraman, olg‘a!» deya xitob qilarkan. Boburning notiqlik mahoratiga misol sifatida shunga o‘xshash yana bir holatni kuzatish mumkin. Hindistonda davlatchilik siyosatini mustahkamlash, mayda-mayda feodal, rojaliklarga bo‘linib ketgan yurti yaxlit davlatga aylantirish, o‘lka viloyatlarini markaziy saltanatga birlashtirishda ham u ritorik san‘atning imkoniyatlaridan foydalangan. Bilamizki, bizning tariximiz uzoq o‘tmishga ega. Xususan, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida qo‘llangan harbiy terminlar ham tilimiz qanachalik boy va betakror ekanligini ko‘rsatadi. Quyida Fathiddin Ishoqovning “Boburnoma” uchun qisqacha izohli lug‘at” asaridan olingan harbiy terminlarni ko‘rishimiz mumkin: Adavot – asbob va qurollar; “Bixar tarafidin Mustafu olot va adavotini mukammal va muhayyo qilib, urushg‘a mashg‘ul bo‘lg‘ay”. Alamdor – bayroqdor; “Bxira va Xushob o‘lturushluq bulujlarg‘a Haydar alamdorni yiborilib edi”. A‘do – dushmanlar (birligi - aduv); “Kun tush bo‘la a‘do mag‘lub va maqhur va ahibbo muvtahij va masrur bo‘ldilar”. Bargustvondor – harbiy kishilar; “...bir navbat bir laku yigirma ming bargustvondor bila Hindustonga cherik tortibdur”. Baldayi mahfuza – himoya qilingan shahar. Bobur va boburiylar davrida harbiy faoliyat, jang usullarining xos shakllari amal qilgan. Bu, o‘z navbatida, muayyan harbiy atamalar tizimini shakllantirgan: cherig, lashkar (qo‘shin), xossa tobi (asosiy qism), bo‘y (shaxsiy gvardiya, to‘lg‘ama (otliqaskarlar), tura (odam bo‘yiga barobar keladigan qalqon), otg‘uvchi (o‘qchi), sipoh (askar), mo‘g‘ulcha navkar (askar), arg‘amchi (qoramol terisidantayyorlangan arqon), yayog‘ (piyoda). Mualliflarning ta’kidlashicha,

Zahiriddin Muhammad Boburning son jihatdan katta bo‘lmagan cherigida o‘t sochuvchi tufak//tufang, miltiq bilan qurollangan tufangandoz, miltiqchi va miltiq otquvchi deb ataladigan askarlar ham xizmat qilgan. Boburning Hindiston hukmdori Ibrohim sulton bilan 1526-yili Panipatda kechgan jangida tufangandozlarga odam bo‘yibarobar tura hamda arqonlar bilan bir-biriga bog‘langan 700 ta arava ortida joylashib, dushmani va uning jangovarfillarini o‘qqa tutishdek muhim taktik vazifa yuklatilgan. Tufangandozlar shayboniylar va uch xonlik qo‘shinida ham faoliyat yuritgan. Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, maxsus terminlar til lug‘atining eng jadal rivojlanayotgan qismi bo‘lib, zamonaviy jamiyatda juda muhim rol o‘ynaydi, bu “axborot” sifatida tavsiflanadi, shuningdek ilmiy asosga ega, fan, texnika, ishlab chiqarish va boshqa faoliyatning turli sohalariga ixtisoslashgan tadqiqot va olingan bilimlarda namoyon bo‘ladi. Har bir maxsus bilim yoki faoliyat sohasi o‘zining lingvistik apparatini rivojlantiradi, bu tushunchalarni nomlash va ularni tushunish, muloqot jarayonida ko‘rsatish maqsadlariga xizmat qiladi [4]. Ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek harbiy terminlar tizimining shakllanishi ko‘hna tarixga borib taqaladi. Bunda, birinchidan, o‘zbek tilida qadimdan mavjud bo‘lgan terminlarning keyingi davrlarda qo‘llanishda davometgani, ikkinchidan, yangi terminlarning yuzaga kelish jarayonlarini hisobga olish maqsadga muvofiq.

### Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Boburnoma asaridagi harbiy terminlar Z.M. Boburning harbiy yurishlari bilan bog‘liq bo‘lib asarning badiiyligi va tasviriy tarixiy o‘rinlarni boyitishga xizmat qilgan bu harbiy terminlar desak mubolag‘a bo‘lmaydi shu jumladan, Bobur Mirzoning harbiy mahorati va notiqlik san’ati imkoniyatlarini bilishi jang-u jadallarda qo‘l kelganiga Hind va Afg‘on zamini sari harbiy yurishlarida yaqqol ko‘rinadi. 1525 yilda Bobur Rano Sango bilan ittifoq tuzib, Shimoliy Hindistonni egallash maqsadida Ibrohim Lo‘diyga qarshi jangga kirdi. 1525 yil kech kuzda Bobur Panjobni bo‘ysundirdi, 1526 yilda Panipat qishlog‘i yaqinidagi birinchi jangda Boburshoh qo‘shini Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyning ukasi Mahmud Lo‘diy qo‘shini ustidan g‘alaba qozonib, Bengal shohi Nusratshoh bilan do‘stona aloqalarni o‘rnatdi. Manashu ma’lumotdan ham kelib chiqadigan bo‘lsak Tilimiz rivojida bu asarning roli juda katta ahamiyat kasb etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Меретова Ш. Хамидулла Дадабоевнинг ўзбек тилшунослигида тутган ўрни. – Тошкент, 2018. – 20 Б.
2. Дадабоев Х., Ёдгоров Х. Ўзбек харбий терминологияси. Вазирлар
3. Маҳкамасининг давлат тилини ривожлантириш департаменти. – Тошкент: Сахҳоф, 2021. – 216 Б.
4. Ishoqov F., “Boburnoma” uchun qisqacha izohli lug‘at. – “Andijon nashriyatmatbaa” OAJ, 2008.

5. Исаев Р.Р. Структурный лингвокультурологический аспекты формирования отраслевой терминосистемы (на материалы военно-технической терминологии современного персидского языка) -М.: 2013. дисс. канд. фил

